



94. Sonni 2 ga bo'lish

Yondosh mavzu:
ta'lim.

Ko'paytirish,
bo'lish.



1. Chet tili darslarida sinf 2 ta teng guruhga bo'linadi. Agar sinfda 30 nafar o'quvchi bo'lsa, guruhda necha nafar o'quvchi bo'lishi kerak?



2. Har bir masalaga ifoda tanlang.

a) 2 ta qutining har biriga 10 tadan qalam solindi. Qutilarga hammasi bo'lib nechta qalam solindi?

$$20 : 10$$

b) 20 ta qalam 2 ta qutiga teng bo'lib joylandi. Har bir qutiga nechta qalam joylangan?


$$20 : 2$$

d) 20 ta qalam 10 tadan qilib guruhlarga bo'lindi. Necha guruh hosil bo'ldi?

$$10 \cdot 2$$



Bo'lish – ko'paytirishga teskari amal.
 a sonini b ga bo'lish – shunday c sonini topishki, bu sonni b ga ko'paytirganda a soni hosil bo'ladi.



$$a : b = c \iff c \cdot b = a$$

a	2	4	6	8	10	12	14	16	18	20
$a : 2$	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

afzal



3. To'g'ri yechilgan misollarni toping. Mos harflardan so'z tuzing. Bu so'z nimani anglatadi?

A $18 : 2 = 6$

O $20 : 10 = 2$

M $8 : 2 = 2$

T $14 : 7 = 2$

N $16 : 2 = 9$

V $12 : 6 = 2$



4. Hisoblang.

$2 \text{ h } 30 \text{ min} + 3 \text{ h } 50 \text{ min}$

$8 \text{ h } 10 \text{ min} - 2 \text{ h } 20 \text{ min}$

$6 \text{ h } 55 \text{ min} + 1 \text{ h } 35 \text{ min}$

$8 \text{ h } 10 \text{ min} - 3 \text{ h } 45 \text{ min}$



5. Darslar 8:00 da boshlanadi. Har bir dars 45 minut davom etadi, darslar oralig'ida 10 minut tanaffus bo'ladi. Agar bugun Iskandarning 4 soat darsi bo'lsa, uning darslari nechada tugaydi?



6. Rasmlardan foydalanib, savollarga javob bering.

a) Iskandar mashg'ulotdan soat nechada qaytgan?

b) Soatda Farzona dars tayyorlashga o'tirishi kerak bo'lgan vaqt ko'rsatilgan. Agar Farzona dars tayyorlashga 1 h 30 min sarflasa, u soat nechada bo'sh bo'ladi?



7. Taqqoslang.

$16 : 2$ ☐ $14 : 7$

$8 : 4$ ☐ $6 : 3$

$24 : 2$ ☐ $18 : 2$

$9 : 3$ ☐ $12 : 2$

$7 : 2$ ☐ $2 : 8$

$26 : 2$ ☐ $9 : 2$



8. Ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini hisoblang.

a) Anora 18 ta kitobni kitob javoni tokchalariga shunday joyladiki, bunda har bir tokchadan 9 tadan kitob o'rin oldi. Kitoblar nechta tokchani egallagan?

b) Kutubxonada 8 o'quvchining har biriga 2 tadan yangi darslik berildi. Bu o'quvchilarga hammasi bo'lib nechta darslik berilgan?